

LINGUOPOETICS AND ITS IMPORTANT ROLE IN LITERATURE.

Gulasal Davlatovna Bakirova

Doctorate (PhD) Denau Entrepreneurship and Pedagogy Institute
Surkhandarya, Uzbekistan

LINGVOPOETIKA VA UNING BADIYY ADABIYOTDAGI MUHIM O'RNI.

Gulasal Davlatovna Bakirova

Tayanch doktorant (PhD)
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Surxandaryo, O'zbekiston

ЛИНГВОПОЭТИКА И ЕЕ ВАЖНАЯ РОЛЬ В ЛИТЕРАТУРЕ.

Гуласал Давлатовна Бакирова

Докторант (PhD)
Денауский институт предпринимательства и педагогики
Сурхандарья, Узбекистан

Abstract. The article aims to determine the inclusion of one or another language unit (word, phrase, grammatical form, syntactic construction) by the author in the sample of artistic creativity and their manifestation of a specific aesthetic effect. Naturally, the worldview associated with the need to study many works of art also applies to the process of teaching linguistics.

Although many laws and regulations in the study of this area, changes in the framework of language material have occurred very slowly, the sociolinguistic aspects of the language, the process of its practical application are brought into line with new, modern requirements - this is a vital requirement. This is primarily due to the effective use of language material in the speech process, to a certain extent solving normative problems in terms of further improving speech culture, and informing students and the public about this knowledge. Revealing the important importance of linguopoetic analysis in understanding the work.

Keywords: Linguistic and semantic language tools, phonetic and lexical phraseology, syntactic devices, linguopoetic analysis, word polyphony.

Annotatsiya. Maqolada asosiy maqsad – til birliklarining (so'z, so'z birikmasi, grammatik shakl, sintaktik konstruksiya) muallifning badiiy ijod namunasiga qo'llash mahorati va ularning o'ziga xos estetik ta'sirini namoyon etishini aniqlashdan iborat.

Ko'plab badiiy asarlarni o'rganish ehtiyoji bilan bog'liq dunyoqarash tilshunoslik ilmini o'qitish jarayoniga ham aloqador. Bu sohani o'rganishdagi ko'plab qonun-qoidalar, til materiali doirasidagi o'zgarishlar juda sust holda amalga oshgan bo'lsa-da, tilning sotsiolingvistik jihatlarini, uni amalda qo'llash jarayonini yangicha, zamonaviy talablarga moslashtirish zamonaviy tilshunoslikning muhim talabidir. Bu,

avvalambor, til materialidan nutq jarayonida samarali foydalanish, nutq madaniyatini yanada takomillashtirish borasida mavjud muammolarni muayyan darajada hal qilish va bunga oid bilimlardan talabalarni, jamoatchilikni xabardor qilib borish lozim. Lingvopoetik tahlilning asarni tushunishdagi muhim ahamiyatini ochib berish maqolada ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: lisoniy va semantik til vositalari, fonetik va leksik ibora, sintaktik qurilmalar, lingvopoetik tahlil, so'zpolifoniyasi.

Аннотация. *Цель статьи – определить, включены ли автором определенные языковые единицы (слова, словосочетания, грамматические формы, синтаксические конструкции) в образец художественного творчества и обладают ли они определенным эстетическим эффектом.*

Естественно, что мировоззрение, связанное с необходимостью изучения множества произведений искусства, распространяется и на процесс преподавания языкознания. Несмотря на то, что многие законы и положения в области изучения этой области, изменения в объеме языкового материала происходят очень медленно, крайне важно адаптировать социолингвистические аспекты языка и процесс его практического применения к новым, современным требованиям. Это связано, прежде всего, с эффективным использованием языкового материала в речевом процессе, в определенной степени решающим нормативные задачи по дальнейшему совершенствованию культуры речи, доведению этих знаний до учащихся и общественности. Раскрыть значение лингвопоэтического анализа в понимании произведения.

Ключевые слова: *Лингвистические и семантические средства языка, фонетическая и лексическая фразеология, синтаксические приемы, лингвопоэтический анализ, полифония слов.*

Kirish

Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi dolzarb ilmiy-nazariy masalalari, muammolari, tadqiqiy vazifalari bilan ajralib turadi. Xususan, o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biri – adabiy ijodlar, yetuk badiiyat namunalarini lingvopoetik mezonlar nuqtayi nazaridan kuzatib, o'rganib borish, bu yo'nalishdagi tahlil, talqin, baholashni izchil yo'lga qo'yishdan iborat. Bu jarayonda yangilanish tamoyili qizg'in kechmoqda. Binobarin, ularning eng manzur va e'tiborga sazovorlari asosida lingvopoetik tadqiqni amalga oshirish muhim. Tabiiyki, ana shu zaruriyat bilan bog'liq dunyoqarash tilshunoslik ilmini o'qitish jarayoniga ham aloqador. Bu, dastavval, til materialidan nutq jarayonida samarali foydalanish, nutq madaniyatini yanada takomillashtirish borasida me'yoriy muammolarni muayyan darajada hal qilish va bunga oid yangiliklardan ilmiy jamoatchilikni xabardor qilib borish shart.

Asosiy qism

Tilning turli qirralarini uzviy tarzda birlashtirib, uni yaxlit bir butunlik, bir sistema sifatida o'rganuvchi tilshunoslik asrimizning 20-yillarida shakllandi va sistem-struktur tilshunoslik nomi bilan mashhur bo'ldi. Asosan, Ferdinand de Sossyur asos solgan XX asr

sistem tilshunosligi bag'rida o'nlab yangi lingvistik oqim va maktablar vujudga keldi. Til ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida doimo qisqalik va osonlikka intiladi. Tildagi fonetik va leksik so'zlardan foydalanish bir qancha osonlik va ravonlikka yo'l ochadi. Badiiy asarning bosh unsuri so'z, umuman, til ekan, asarning chinakam san'at darajasiga ko'tarishda uning tili, muallifning til vositalarini qay darajada qo'llay olishi asosiy omildir (6.167). Badiiy asarni lingvopoetik tahlil qilishning bir qator tamoyillari mavjud. Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o'zbek tili materiallari asosida mufassal tadqiq etgan M.Yo'ldoshev lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy tamoyillarini ko'rsatadi:

- 1) shakl va mazmun birligi asosida yondashuv;
- 2) makon va zamon birligidan kelib chiqish;
- 3) umumxalq tili va adabiy til munosabati asosida baholash;
- 4) badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida yondashuv;
- 5) badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash;
- 6) badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash;
- 7) badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash (1.210).

Olim lingvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash muhim tamoyillardan ekanini alohida ta'kidlaydi, chunki bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin.

Albatta, badiiy mazmunning ifodalanishida tilning fonetik-fonologik, morfemik, leksik, morfologik, sintaktik va hatto supersintaktik kabi barcha sath birliklari ishtirok etadi. Lingvopoetik tahlilning tamalida aynan shu mavzu, ya'ni poetik aktuallashgan – poetik mazmun bilan yukungan til birliklarini aniqlash va ularni tegishli tarzda baholash tamoyili turmog'i maqsadga muvofiq. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov yozganiday: Badiiylik – san'atning, jumladan, so'z san'atining asosiy, doimiy xususiyati. Juda qadim zamonlardan buyon hozirga qadar ko'plab olimlar badiiylikni xilma-xil talqinlar, ta'rif-u tavsiflar etib kelishadi. Lingvopoetik tahlil jarayoni faqat yozuvchining tili va uslubi haqida ma'lumot berish bilan chegaralanmaydi, balki asar yaratilgan davr tilining o'ziga xosligi, yozuvchining so'z boyligi, til vositalarining ifodalanish usullari, badiiy tasvir vositalarining til faktlari vositasida aks ettirilishi, umuman, tilni uning barcha sathlari yuzasidan tahlil qilishdan iborat bo'ladi.

Arastu o'zining mashhur "Poetika" asarida poetik san'at – she'riy navlar (janrlar) xususida to'xtalib, poetika – poeziya san'ati haqida so'z yuritgan. "Til va fikr" bobida esa nutq va fikrga tegishli hodisalarning ritorikaga aloqadorligi ta'kidlanib, uning nutq tuzish bilimlari bilan bog'liqligi e'tirof etiladi (1.210). XX asr tilshunosligida badiiy asar tili tadqiqiga keng e'tibor berilgani bois, ritorika va poetika tushunchalarini birlashtirgan holda badiiy asardagi voqelik tasvirini har tomonlama, chuqur va yaxlit holda tadqiq etishni o'zida aks ettiruvchi "lingvopoetika" atamasi paydo bo'ldi (3.5-38).

Lingvopoetikaning nazariy asoslarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflash mumkin:

Poetik fonetika. Bunda badiiylikni ta'minlovchi unsurlar sifatida tovushlar tadqiq etiladi. Ya'ni uslubni yaratishda o'ziga xos tovush o'zgarishlari, urg'uning berilishi, ularning

o'quvchi tasavvuriga ta'siri va boshqa omillar e'tiborga olinadi. Masalan, nasrda ham obrazning ishonchli bo'lishi uchun turli so'zlar ifodasidagi o'ziga xos holatlar Jeyms Joysning "Uliss" asarida (Siapold Simon + Leopold, waaaaaalk) (11.741,517) kuzatiladi. Bu kabi o'zgarishlarning maqsadini lingvopoetik tahlil ochib beradi.

Poetik leksikologiya. Bu yo'nalishning tadqiqot ko'lami nihoyatda keng bo'lib, masalan, biror asar tilida sinonim, omonim iboralar yoki chegaralangan leksika (dialektizmlar, istorizmlar, arxaizmlar...), o'z va o'zlashgan so'zlar qatlamining ishtiroki masalan, "Uliss" asarida Mortimer Edwar, Mr Purefo kabi tarixiy ismlarning keltirilishini ko'rishimiz mumkin.

Poetik morfemika. Bu nafaqat morfemika, balki morfologiya va so'z yasalishi bo'yicha tahlillarni ham o'z ichiga olgan nihoyatda keng yo'nalish bo'lib, salmoqli tadqiqotlarga sabab bo'ladi. Masalan, asar matnida o'ziga xos tarzda qo'llangan har bir affiksning tahlili ham tarixiy, ham tavsifiy, ham qiyosiy jihatdan olib boriladi. "Uliss" asarida (mooncarole (moon + barcarole)).

Poetik semantika. Bunda so'zlarning turli ma'no qirralarini ifoda etishi, ayniqsa, ko'chma ma'noda qo'llanishi tadqiqida ham til boyligi, ham uslubning o'ziga xosligini ko'rsatib beruvchi vositalarga diqqat qaratiladi. Bu yo'nalishni bevosita badiiy san'atlar, tasvir vositalari (sifatlash, o'xshatish, mubolag'a va b.) tahlili bilan bog'liq holda olib borish kerak bo'ladi. rever, vobiscuits b) endlessnessnessness, cleverevery (10.).

Poetik sintaksis. Bu yo'nalishda matnning gap qurilishi tadqiq etiladi. Unda lingvopoetik tahlil formal sintaksis, mazmuniy sitaksis, kommunikativ sintaksis va matn sintaksisi bilan bog'liq holda olib boriladi. Poetik nutqni tahlil etish usuli ikki xil: she'riy va nasriy matn asosida amalga oshiriladi. Chunki bunda she'riy nutqni shakllantiruvchi unsurlarga, she'riy nutq tuzilish tizimiga, gap bo'laklari tartibiga, lafziy va ma'naviy san'atlarning qo'llanishiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Shoirning g'oyasi va maqsadini aniqlashda gap bo'laklarining shaklan va mazmunan ifodalanish usullarini, emotsional-ekspressivlikni ta'minlovchi barcha vositalarni tahlil etish zarur. Nasriy nutqda ham gaplar va gap bo'laklari tartibi, shakliy va mazmuniy mutanosiblik kabilarga e'tibor berish kerak. Bunda tahlil gapning formal-grammatik bo'linishi, aktual bo'linishi, mantiqiy urg'u, presuppozitsiya kabi hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Umuman, bu yo'nalish struktural poetika tushunchalari bilan aloqador. O'zbek tilshunosligida lingvopoetikaning tadrijiy taraqqiyotida X.Doniyorov, S.Mirzayev, Q.Samadov, I.Qo'chqortoyev, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, I.Mirzayev, M.Yo'ldoshev kabi olimlarning xizmatlari beqiyos (2.10). Ular badiiy asar tilining stilistik, badiiy-estetik jihatlarini yozuvchining so'z tanlashi, uning o'ziga xos tili, umumxalq tiliga bo'lgan munosabati, yangi so'z va iboralar yaratishi kabi omillar nuqtayi nazaridan keng ko'lamlı tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

Xulosa

Zamonaviy filologiyaning dolzarb vazifalaridan biri – lingvopoetikaning nazariy asoslarini ishlab chiqish, aniqrog'i, bir tizimga solish, uning tadqiq usullari va vositalarini, tadrijiy takomlini yaxlit holda o'rganish, barcha tushunchalarni guruhlashtirish va shu yo'l bilan badiiylıknı ta'minlovchi unsurlarnı tadqiq etishdan iborat (8.95). Yuqoridagi fikrlar asosida yaxlit xulosa qilishimiz mumkinki, matn tilshunoslik nuqtayi nazaridan barcha

lingvistik xususiyatlarni o'zida mujassam etgan murakkab tuzilmadir, u tilshunoslikning barcha sohalarining asosiy o'rganish obyektlarining bir qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yo'ldoshev M. Badiiy matn tili. Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashiryoti, 2010. – 210 b.
2. Musulmanova N.R. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili: tarixi, metodologiya va tadqiqot metodlari //O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari, 2023. 2(5):90-97.
3. Discourse analysis in Ulysses and The Sound and the Fury Dr. Dalila Karakaçi //Academic Journal of Business, Administration Law and Social Sciences, 2024. Vol. 10. – № 1.
5. Inogamova N. Lingvopoetik tahlil, uning badiiy asar qimmatini oshirishdagi o'rni// Science and innovation international scientific journal. Volume 1 Issue 8 Uif, 2022.
6. Абдиназимов Ш.Н. Лингвопоэтика. (Оқыў қолланба). – Нөкис, 2020. – 167 б.
7. Irisqulov M.T. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. Tilshunoslikka kirish. – T., 2009.
8. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – T., 1972.
9. Соссюр Ф. Труды по языкознанию. – М., 1977.
10. Жойс Жеймс. Улисс саргузаштлари: роман /Ж Жойс; рус тилидан И. Ғафуров. – Тошкент: O'zbekiston, 2012. – 840 б.
11. Joys Jeyms. Ulysses Matn J. Joyce. London: Picador, 1998. – 741 p.